

Uzbekistan Airways Malayziyada turizm forumida ishtirok etdi

2025 18 Aprel

Uzbekistan Airways vakillari Kuala-Lumpurda o'tkazilgan "Samarqand - Ipak yo'li durdonasi" turizm forumida muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Ushbu forum Malayziyaning 120 dan ortiq turizm sohasi vakillarini bir joyga jamladi.



Mazkur tadbir O'zbekistonning sayyohlik salohiyatini targ'ib qilish va yangi hamkorlik aloqalarini o'rnatish uchun ajoyib imkoniyat yaratdi. Forumni Samarqand shahar hokimligi va O'zbekiston Respublikasining Malayziyadagi elchixonasi hamkorlikda tashkil etdi.



